



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCE.UZ

30 APRIL
№27

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 30 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Kayumova Nodira Zayniddinovna

BUYUK IPAK YO'LIDA – IPAK MATOLAR SAVDOSI 7

2. Yusubova Mehribon Qurbonazarovna

O'QUV JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 8

3. Саъдуллаев Рустам Исматулло ўғли

ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИДАГИ ҚАДИМГИ НОМЛАР ТАРИХШУНОСЛИГИ 10

4. Yuldasheva Komila Ikromovna, Quryazova Dilfuza Atayazovna

TARIX FANINI ILG'OR INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
O'QITISH 12

5. Ahmedov Farruh Hoshimovich

TARIX DARSLARINI O'QITISHDA KO'RGAZMALI QUROLLARNI TANLASH VA
NAMOYISH QILISHNING ASOSIY QOIDALARI 14

6. Raximova Madina

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATION METODLARDAN FOYDALANISH 16

7. Samatova Dilrabo Xamitovna

TARIX FANINI O'QITISHDA TAQQOSLASH METODIDAN FOYDALANISH 18

8. Toshnazarov Jamshid

TARIX TA'LIMIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI 20

9. Xudoyberdiyev Ilhom

TARIX FANLARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA ULARNING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 22

10. Xushmurodova Zokiya Arslonovna

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKİSTONLIK JANGCHILARNI
FASHIZMNI TOR-MOR ETİSHDAGI JASORATLARI 24

11. Abdullayeva Nigora Po'latovna, Safasheva Muhayyo

O'ZBEKİSTON TARIXINI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK
ASOSLARI 26

12. Madumarova Zaxro Miralimovna

AMIR TEMUR YIRIK DAVLAT ARBOBI VA YUKSAK MA'NAVİYAT EGASI 28



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

BUYUK IPAК YO'LIDA – IPAК MATOLAR SAVDOSI

Kayumova Nodira Zaynitdinovna

Toshkent viloyati Chirchiq shahar 25-umumiy

o'rta ta'lif maktabining Tarix o'qituvchisi

Telefon: +998 94 362 22 78

Annotatsiya: Quyidagi ushbu maqolada, Buyuk ipak yo'lida ipak matolar savdosi haqida qisqacha ilmiy yondashishga va ilmiy nuqtai nazardan ma'lumot berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Ipak, Xitoy, ayol, parcha, Dasya, Ptolemey, Buyuk ipak yo'li.

Qadim zamonlarda Xitoydan Turkistonga, so'ngra Yevropaga olib ketilgan mollar ichida ipak matolar va boshqa ipak mahsulotlari asosiy o'rinni egallagan edi. Ko'p hollarda ipak matolari xalqaro savdo aloqalarda sotiladigan va sotib olinadigan mollarning bahosini belgilovchi o'lchov yoki pul o'rnida ham ishlatilgan. Miloddan avvalgi davrlarda va milodning boshlarida Xitoyning g'arbiy tomonida yashovchi xalqlar poliz ekinlari mahsuloti, meva va quritilgan meva kabilarni ham ipak matoga ayirboshlashgan. Xitoya ayol qullarni olib borib sotishda ham uning narxi ipak mato bilan belgilangan. Chunonchi, Taklamakon cho'lining janubi-sharqiy tomonida joylashgan qadimgi Niya shahri xarobasidan topilgan bir hujjatda "Sujidening xabar qilishiga ko'ra, Sujisaka ayolining narxi 41 o'ram ipak matodan iborat. Ushbu tamg'alangan xat qo'lingga tekkandan keyin, shaxsan o'zing u ayolning haqiqatdan sotib olingen yohud olinmaganligini surishtirib ko'r Hamma narsa qonuniy bo'lism kerak", deb yozilgan. Ushbu hujjat mazmunidan qadim zamonlarda bir ayol qulning narxi Xitoya 41 parcha (bo'lak – qadimgi o'lchovda 546,53 metr) ipak matoga teng bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

Xan sulolasi tarixida "G'arbiy mamlakatlarga borgan elchi yoki savdogar ipak matolarni iloji boricha ko'p olib borishi kerak. Aks holda "yeishiga ovqat topolmasligi mumkin", deb yozilgan misralarni uchratish mumkin. Ushbu ma'lumot ham Buyuk ipak yo'lidiagi xalqaro savdo aloqalarda ipak matolari muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi.

"Tarixiy xotiralar" kitobida "Xitoya G'arbdan va Shimoldan kelgan elchilarning keti uzilmaydi. Markaziy Osiyodan kelganlar ichida Ansi (Arshak, Parfiya) davlatidan kelganlar boshqa tilda so'zlashsa ham savdo qilishni yahshi bilishgan. Dasya (Qadimgi Rim) davlati Davan (Farg'ona) davlatining g'arbiда joylashgan bo'lsa ham, u yerdan kelganlar ham savdolashishni yahshi bilishgan" deb adabiyotlarda keltirilgan. Buyuk geograf Ptolemyning ma'lumotiga ko'ra, Iskandarning savdogarlari Baqtriya va torim vahasi orqali Xitoya borib ipak matolarini olib kelganlar.

Miloddan avvalgi Rim davlatida boylarda, ayniqsa ayollar orasida ipak matodan kiyim kiyish shu darajada odat tusiga kirganki, rimliklar hind savdogarlaridan yiliga o'rta hisobda 5500 "sestersiy" (sestertius) oltin tanga hajmida turli xil gazlama sotib olishgan. XIX asrdagi narx bilan hisoblaganda, 5500 "sestersiy" 1 mlrd. Frank oltin tangaga teng bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qadim zamonlarda ipak mahsuloti Xitoyning asosiy eksport mahsuloti bo'libgina qolmasdan, balki o'zga xalqlardan sotib olinadigan mollar uchun beriladigan to'lov vositasi ham edi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: Munosabatlar va taqdirlar. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 280 b.
2. Abduxaliq Abdurasul o'g'li. Buyuk ipak yo'li // "Muloqat", № 7,8, 1994.
3. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: Munosabatlar va taqdirlar// <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/ablat-xo-jayev-buyuk-ipak-yo-li>



O'QUV JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Yusubova Mehribon Qurbanazarovna

Xorazm viloyati Shovot tumani 23-maktabning taix fani o'qituvchisi
yusubovamehribon@gmail.com//91-422-56-57

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarini o'qitishda AKT dan unumli foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: differensial o'qitish, animatsiya, grafika, multiplikatsiya

Keyingi yillarda yurtimizda tub o'zgarishlar, rivojlanishlar ro'y berdi.

Hayotimizning barcha sohalariga AKT jadal sur'atlar bilan kirib keldi. XXI asrni, hech ikkilanmasdan, Axborot texnologiyalari asri, desak bo'ladi.

Bugungi kunda yurtimizda o'quv jarayoniga zamонавиу ахборот-комуникация ва педагогик texnologiyalari, elektron darsliklar hamda multimedya vositalarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday tub islohotlarning natijasida umumiyo o'rta ta'lim maktablari eng zamонавиу o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa turli xil fanlarni o'zlashtirishda qulay imkoniyatlar yaratadi.

O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish foydalanuv-chilarning tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo'llarini ochib beradi, ta'limni faollashtirish uchun prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilish;
- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lash;
- o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borish;
- o'rganilayotgan fanlarni namoyish etish va ularning dinamik jarayonini ko'rsatish;
- fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- o'quvchilarda fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilish va hokazo.

AKTdan foydalanib dars o'tish o'quv samaradorligining keskin oshishiga ko'maklashadi.

Bugungi kunda dars o'tishning turli xil yo'l-yo'riq va vositalari ishlab chiqilmoodqa. Masalan, mashg'ulot darsi, kinoli dars, teatrli dars, chizma darsi, BBB usuli (Bilaman, bilishni xohlayman, bildim) o'zlashtirilgan ma'ruza va hokazo. Bu usullar ta'lim samaradorligini, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim o'rinn egallaydi. Internet resurslarini darsda ishlatish o'quvchini mustaqil ishlashga undaydi. Chunki har xil ma'lumot bilan ishslash, uni tahlil qilish, baholash juda dolzarb muammolardan biri bo'lib, oquvchilar mavzularini anglab va tushunib yetishi uchun barcha imkoniyatlar yaratish katta samara beradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, bugungi kun talabini his qiladigan, mantiqiy tafakkurga ega insonlar qilib tarbiyalashimiz uchun ularning dunyoqarashini shakllantirishimiz lozimdir. Bunday natijalarga erishishda esa fanlarni o'qitishda AKTdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, umumiyo o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda ham AKTdan foydalanish ijobjiy natija beradi. Tajribalardan ma'lumki, inson eshitish orqali -15 %, ko'rish orqali - 25 %, eshitish bilan bir vaqtida ko'rganida esa -65 % axborotni qabul qiladi. Bugungi ta'lim samaradorligini oshirishda esa AKTdan foydalanish maqsadga muvofiq.

AKT vositalaridan biri bo'lgan kompyuterdan foydalanishni pedagogik jarayonlarga tatbiq etilsa, shubhasiz, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi ortadi va shu bilan ta'lim samaradorligi ham o'sadi. Bunday vaziyatda o'quvchi ham ko'radi, ham eshitadi, ham kompyuter bilan muloqotda bo'ladi.

Tarix darslarida AKT bilan ishslash jarayonida ma'naviyatimizga yot, "ommaviy madaniyat" ga xos bo'lgan axborotlarga qarshi kurashish uchun o'quvchilarda ma'naviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bugunga kunga kelib, rasmlar yoki qog'oz plakatlardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish



usuli eskirdi.Tarix darslarida qadimiy xaritalarni internetdan topib,interaktiv doska orqali namoyish qilish,darslarni multimedia vositalari, slaydlar asosida tashkil qilish samarali natijalarga olib keladi. Shu bois tarix darslarida mavzuni jonli,qiziqarli va zamonaviy o'tish uchun AKT dan unumli foydalanish,darslarni mediadars shaklida tashkil qilish lozim. Respublikadagi tajribali ijodkor o'qituvchilar tomonidan o'tilgan darslarning video shaklini yaratish va ulardan unumli foydalanish ham mumkin..

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars o'tish ham yangilik, ham yengillik yaratadi: zarur ko'rgazmali qurollar, tarqatmalarning hammasi kompyuter orqali tayyorlanadi. Bu o'qituvchining darsga tayyorgarlik vaqtini va ko'rgazmali qurollarga sarflaydigan mablag'ini tejaydi. Shuningdek, o'quvchilar yangi bilimlarni olish uchun faol ishtirot etadilar va fanga qiziqishlari ortadi.Zero,AKT ilmini bilish, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bugungi kun talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J., "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". – Toshkent,Fan-2004-yil.
2. Haydarov B. va b.q. Ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari.Toshkent- 2002-yil.
3. Usmonova K.Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar,Toshkent,2004-y.



ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИДАГИ ҚАДИМГИ НОМЛАР ТАРИХШУНОСЛИГИ.

Саъдуллаев Рустам Исматулло ўғли
Тошкент давлат шарқшунослик университети
2-босқич магистранти
Телефон: +998914606868
Sadullayev0707@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақола Қашқадарё вилояти ҳудудида жойлашган қадимги шаҳарлар ва уларнинг қадимий номларининг келиб чиқиши, турли даврларда турлича номланиши кабиларнинг тарихчилар томонидан ўрганилишини тарихшунослик фани нуқтаи назаридан ёритиб беради.

Калит сўзлар: Қарши шаҳри, Қашқадарё, Нахшаб, Кеш, Навтоқ, Наутака, Ксениппа, Ерқўрғон, Насаф.

Қашқадарё воҳасининг маъмурӣ маркази ҳисобланган Қарши шаҳри 2700 йиллик тарихга ва қадимилик борасида Самарқанд, Бухоро, Хива каби шаҳарлардан қолишмайди.

Қашқадарё воҳаси ҳақидаги илк хабарлар зардуштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто”да учрайди. “Авесто” матнларининг энг қадимијлари милодга кадар бўлган IX – VIII асрларга оид бўлиб, у тўла равишда милоднинг IV асрларида ёзиб олинган. Оташпаратлик динининг илохий матнлари мажмуаси милодгача бўлган IX асрлардан то янги милоднинг III – IV асрларига қадар ёзилган, тўлдирилган ва тўпланган. “Авесто”да Бохтар ўлкаси (Сурхондарё ва Афғонистоннинг шимолий қисми), Суғдиёна (Зарафшон ва Қашқадарё воҳалари)¹. Мил.ав. IV асрда юон тарихшуноси Арриан ва римлик Курций Руф Қашқадарё ҳудудида учта вилоят – Наутака, Ксениппа ва Габаза ҳақида маълумот беришади².

Воҳа тарихини юон, хитой ва араб сайёҳларининг солномалариғина бир қадар ёритади. Хитойликлар Нахшабни “Нашебо”, Кешни “Ци-ши” деб ёзганлар. Араб тарихчилари Ибн Хавқал, Ибн Хурдодбех, Истаҳрий, Ёқут, Муқаддасий, Самъонийларнинг асарларида воҳанинг тарихи ва маданияти ҳақида айрим қизиқарли маълумотлар бор.

Б.В. Лунин “Навтоқ”ка: “Ҳозирги вақтда Нахшаба (Наутака) харобасини Марказий Осиёнинг энг катта шаҳарларидан бири – Ерқўрғон деб қарашга барча асослар етарли, чунки унинг ўрнида антик давр Сўғд шаҳрига хос бўлган маданий қатламлар сакланиб қолган”³, деган изоҳни беради. С.К. Кабанов Наутакани ҳам Ксениппани ҳам шаҳарлар тарзида эмас, вилоятлар сифатида қарайди. С.К. Кабанов фикрига кўра Наутака воҳанинг юқори қисми, Ксениппа эса кўйи қисми, яъни Ксениппа – Нахшоб (Қарши), Наутака эса Кеш (Шахрисабз) га тўғри келади.

Наутака — янги бино деб ҳам талқин қилинади.

1963-1966 йиллари Қарши воҳасидаги энг йирик шаҳар харобасини Тошкент давлат университети (ҳозирги ЎзМУ)нинг М.Массон бошчилигидаги Кеш археологик-топографик экспедицияси ўрганди. Ушбу экспедиция изланишларининг натижаси сифатида вужудга келган М.Массоннинг «Столичные города в области низовьев Кашкадарья с древнейших времён» номли китобида Қарши воҳасидаги Ерқўрғон ёдгорлигини Александр Македонский юришлари баён этилган юон манбаларидаги Нахшаба шаҳри билан боғлайди⁴. Юон тарихчиси Аррианнинг ёзишича, «милоддан аввалги 328 или Македонскийнинг Кен, Кратер, Фратеферн ва Станазор каби лашкарбошлари ўзларининг отрядлари билан Нахшабага, Македонский олдига келишди. Бу пайтда қиши авжида эди. Ў қўшинларига Нахшаба атрофларига жойлашиб, дам олишга буйруқ берди»⁵.

М.Е. Массоннинг фикрича, Ксениппа воҳанинг юқори қисми, Наутака –вилоятнинг кўйи шаҳри Ерқўрғон харобаси ўрнига тўғри келади деб қайд этади⁶. Унинг қайд этишича,

¹ Равшанов П. Қарши тарихи. Т., Янги авлод, 2006, 105-б.

² Қадимги Кеш – Шахрисабз тарихидан лавҳалар. Тошкент, Шарқ, 1998, 116.

³ История Узбекистана в источниках. Под. Редакции Лунин Б.К., Т., 1984, с. 92.

⁴ Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарья с древнейших времен (Из раб. КАТЭ. 1965 – 1966 гг.). – Ташкент: Фан, 1973.

⁵ Ртвеладзе Э. В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. Ташкент, 2004.

⁶ Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба. Т., “Узбекистон”, 1988, с. 37.



“Наутака” сўзи “нау” ва “так” ўзакларида ташкил топган ва “Янги сарой” ёки “Янги қалъа” деган маъноларни англатади.

1973 йилда, ЎзРФА Археология институтининг Р.Сулаймонов бошчилигидаги экспедицияси Қашқадарё воҳасида иш бошлади. Бу даврга келиб Еркўрғоннинг турли жойларида қазишмалар ўтказилиши натижасида ҳоким саройи ва қалъаси, шаҳар ибодатхонаси, даҳма, кулоллар ва темирчилар маҳаллалари каби шаҳар харобасининг илгари маълум бўлмаган қисмлари очилди. Шундан кейин ҳақиқатан ҳам Еркўрғон Қарши воҳасидаги энг дастлабки пойтахт шаҳар эканлиги, у юонон манбаларида келтирилган Нахшаба, деган тўхтамга келинди.

Академик Эдвард Ртвеладзе юонон тарихчилари келтирилган Нахшаба Кеш воҳасида бўлган, Ксениппа шахри Қарши воҳасидаги Еркўрғон ўрнида бўлган, дейди. Бундай дейлишига асосий сабаб, ўша ёзма манбаларда Нахшаба атрофларида тоғли худудлар борлиги, аксинча Ксениппа худуди кўпроқ чўл билан, яъни чорвадор аҳоли яшайдиган худудлар билан чегарадош эканлиги ҳақидаги маълумотлар эди¹.

Академик Э.В. Ртвеладзе Еркўрғон шахрини юонон манбаларидаги Бранхитлар шахри билан айнанлаштиради². Ўша даврда зарб этилган “бронза давридаги ҳукмдор тасвири”³ орқали буни изоҳлашга ҳаракат қиласди. III – IV асрлардан то VIII асргача бўлган “Нахшаб” ҳамда “Кеш подшоси” тангалари Еркўрғон шахрининг ўша даврда Кеш мулки тасарруфида бўлганлигини кўрсатади.

Араблар истилосидан кейин Қашқадарё дарёсининг чап қирғоғида жойлашган, ҳозирги Қарши шахрининг шимолий-ғарбий худудларида шаҳар вилоят маъмурий марказига айланди. Манбаларда унинг номи икки хил формада учрайди: Нахшаб ва Насаф. Нахшаб – ўрта асрларда шаҳарнинг қадимги номи. Насаф – араблашув даврида пайдо бўлган⁴. Нахшаб номи фақатгина Наршахий асарларида ва “Худуд ал-олам”да учрайди. Араблар даврида Нахшаб номи ўзгарганлигига қарамасдан бу ном бугунги кунгача сақланиб қолган.

«Қарши» номининг келиб чиқиши тўғрисида турли фикр ва тахминлар мавжуд. В. В. Бартольд шаҳарнинг номи мўғул хони Кепакхон қурдирган «Қарши» (қад. туркийчада «сарой» маъносини англатган) билан бөглиқ деб таъкидлайди. «Қутадғу билиг» («Саодатга йўлловчи билим») достонида «Қарши» атамаси «сарой» ва «қарама-қарши туриш» маъносида қўлланган. «Бобурнома»да ҳам бу ном мўғул тилидан олинганилиги таъкидланган. Келтирилган тахминларда атаманинг «қарши» — сарой, қаср маънолари кўпроқ қўлланади.

Истиқлол йилларида изланишлар миқёси анча кенгайди. Еркўрғон, Қалъаи Заххоки морон, Шуллуктепа, Кўхна Фазли харобалари ўтмишнинг жуда кўп сирларини ошкор этди. Археологик топилмалар натижасида Қашқадарё воҳасининг бир неча минг йиллик тарихи қайта жонланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Равшанов П. Қарши тарихи. Т., Янги авлод, 2006, 105-б.
2. Қадимги Кеш – Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар. Тошкент, Шарқ, 1998, 116.
3. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарья с древнейших времен (Из раб. КАТЭ. 1965 – 1966 гг.). – Ташкент: Фан, 1973.
4. Ртвеладзе Э. В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. Ташкент, 2004.
5. Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба. Т., “Ўзбекистон”, 1988, с. 37.
6. Ртвеладзе Э.В. Ксениппа - Перетака // Кавказ и Средняя Азия в древности и средневековье. М., 1981
7. Шамсиддин К. Историческая география южного Согда и Тахаристана по арабоязъчным источникам с. 51.

¹ Ртвеладзе Э.В. Ксениппа - Перетака // Кавказ и Средняя Азия в древности и средневековье. М., 1981

² Равшанов П. Қарши тарихи. Т., Янги авлод, 2006, 107-б.

³ Ртвеладзе Э.В. Этюд по исторической географии Бактрии и Согдианы во время похода Александра Македонского / ВДИ 2000, №4, с. 104 – 112.

⁴ Шамсиддин К. Историческая география южного Согда и Тахаристана по арабоязъчным источникам с. 51.



TARIX FANINI ILG'OR INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH

Yuldasheva Komila Ikromovna, Quryazova Dilfuza Atayazovna

Urganch shahar 14-son umum ta'lif maktabining

tarix fani o'qituvchilari:

Electron pochta: yuldashevacomila@mail.ru.

Tel:+998 914224515

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o'qitish jarayonida zamonaviy innovations pedagogik texnologiya usullarini qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom mulloqot, munozara, babs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirishi, mavzularni tez va oson tushunishga ko'maklashadigan pedagogik texnologiyalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarix, texnologiya, pedagogik texnologiya, innovations, ilg'or pedagogik-innovations texnologiya.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimiz tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni tariximizni chiqurroq o'rganish imkonini bermoqda. Tariximizdan faxrlanish va xulosa chiqarish imkoniyatlarini ham taqdim etmoqda. Tarixni o'qitishda innovations-pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi tushuniladi. Innovations pedagogik texnologiyalar – ta'lif jarayonida o'quvchilarning o'zaro faolligini oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirishga va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovations pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tarix faning ilm-fan va madaniyat mavzularini kengroq yoritishda "Mening kimligimni top" metodini qo'llash dars samaradorligini oshiradi. O'quvchi unda tezroq fikrlashga, tezroq javob aytishga harakat qiladi. Jumladan, buyuk allomalarimizning nomlaridan foydalangan holda metodni qo'llaymiz (1- rasm)



1-rasm. "Mening kimligimni top" metodi tuzilmasi.

Buyuk ajdodlarning hayot va ijod yo'li ajdodlar uchun hamisha namuna maktabi bo'lib kelgan. Biz ularning ibratli turmush tarzidan chin insonlik sabog'ini o'qib bu dunyodan odam bolasi o'z oldiga muayyan maqsad qo'yib shu yo'lda izlanib, intilib yashashi lozimligini o'rgansak bebafo



asarlarni mutolaa qilib qalbimizga quvvat olamiz.

MOZAIKA metodi(5-7-sinflaruchun). Ushbu metodni qo'llash uchun muayyan mavzu asosida ishlangan illyustrarsiyalar A4 formatli qog'ozga rangli tasvirda chop etiladi. Quyida bir necha misollar havola etilgan:



Mazkur metodni qo'llash o'quvchilarda muayyan tarixiy voqa haqida tarixiy tasavvur shakllanishini osonlashtiradi va ular dunyoqarashida tarix faniga nisbatan hurmat va uni atroflichha o'rganishga bo'lgan o'ziga xos stimul hamda motivatsiya yaratish hizmat qiladi.

Shunday qilib, o'zaro hamkorlik pedagogikasi o'qituvchi va o'quvchi orasida hamfikrlik,ishonch,o'zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa o'z navbatida yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarni anglash va e'tirof etishni kafolatlaydi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi innovatsion faoliyatga tayyor bo`lib, darsga eng so`ngi yangiliklarni olib kirib, o'quvchiga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin. Bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo`yicha mushohada yuritishga, muammolarni o`z vaqtida yecha oladigan qobiliyatiga ega bo`lishi kerak. Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishni o'ziga o`zi zamin yaratishdan boshlash kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. 5.
2. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008 6. M.Ochilov "Yangi pedagogik texnologiyalar". Qarshi, 2000.



TARIX DARSLARINI O'QITISHDA KO'RGAZMALI QUROLLARNI TANLASH VA NAMOYISH QILISHNING ASOSIY QOIDALARI

Ahmedov Farruh Hoshimovich,

Navoiy viloyat Qiziltepa tumani XTBga qarashli
16-umumi o'rta ta'lif muktabining Tarix fani o'qituvchisi

Annotasiya: maqolada Tarix fanlarini o'qitishda ko'r gazmali metodlar va xaritalar bilan ishlashning umumiy qonuniyatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: xarita, etnografiya, toponomika, metodika, kompetentlik.

Tarixiy xaritalar geografik asosda tuzilgan va tarixiy voqealar yoki davrlarning qisqartirilgan obruzli-ramziy tasvirlarini aks ettiradi. O'quvchilar boshlang'ich maktabda atrof dunyosi darslarida kartalar bilan ishlashning dastlabki ko'nikmalarini olishadi. Ularda xaritalarning gorizontall tekisligida relyef shartli shaklda va masshtabda tasvirlangan degan fikr bor. Dunyo xaritasida o'rganilayotgan mamlakat dunyosidagi makon va joylashish to'g'risida g'oyani asoslash uchun ham tarixiy, ham geografik xaritalar (yoki umumiy va tematik) ishlataladi. Xuddi shu narsa ularga joylashtirilgan, ammo u turli o'lchamlarda tasvirlangan. O'rganish umumiydan umumiya yoki umumiydan umumiya o'tishi mumkin. Birinchi holda, o'qituvchi tarixiy xaritani (bitta) namoyish etadi, keyin quruqlik va dengizlar konfiguratsiyasi, qirg'oq chizig'i konturlari, daryolar yo'nalishi bo'yicha talabalar yarim sharlarning fizik xaritasida (umumiy) bir xil hududni topadilar. Agar o'rganilayotgan mavzu uchun mos karta bo'lmasa, uni boshqa tarixiy davr kartasi bilan almashtirish mumkin emas. Aks holda, talabalarda noto'g'ri tarixiy g'oyalar shakllanadi.

Xarita bilan ishlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bu o'quvchini unda to'gvri harakat qilishni o'rgatishdir. Qidirayotgan ob'ektlarni aniqlash, aniq joy belgilari asosida ularni to'g'ri ko'rsatish va ularni baland ovozda gapirish kiradi. Tarixni o'qitishda foydalaniladigan rasmlar orasida syujet xarakteridan qat'i nazar, o'quv qo'llanmalari sifatida yaratilgan ta'limi rasmlar va ma'lum bir janrdagi badiiy asarlar sifatida rassomlar tomonidan yaratilgan tarixiy rasmlarning badiiy asarlari mavjud.

Ko'pincha, tarixiy mavzudagi yirik rassomlarning ko'plab asarlarining reproduksiyalari ko'r gazmali qurol sifatida ishlataladi. Boshqa tomonidan, yuksak badiiy ma'rifiy rasm, shubhasiz, badiiy asardir. Shunga qaramay, ta'lif manzarasi sifat jihatidan o'ziga xos, bir qator muhim xususiyatlarga ega va unga alohida talablar qo'yilgan.

Avvalo, tarixga oid ta'limi rasm rassom yoki illyustrator tomonidan, ayniqsa maktabning ko'r gazmali vositasi sifatida yaratiladi. Ammo o'tmishdagi moddiy yodgorliklarning obrazi alohida ajratilgan holda taqdim etiladigan o'quv jadvallaridan farqli o'laroq, ta'limi rasm - bu barcha alimentlar tanlangan va birlashtirilgan tarixiy hodisaning yaxlit qiyofasini beradigan maxsus qo'llanma.

Zamonaviy tarix darsi uchun bir qator talablar mavjud:

1) u dars mazmuniga, tarix fanining rivojlanish darajasiga va o'quv ishlari vazifalariga mos kelishi kerak;

2) ta'lif, tarbiya va o'qitish vazifalarining bo'linmas birligida darsning aniq maqsadi bo'lishi zarur. O'quvchili, albatta, darsning bir jihatiga, uning mazmuni xususiyatlari, sinfning bilim va mahorat darajasiga asoslanib, alohida e'tibor berishi mumkin, ammo shu bilan birga uning boshqa jihatlari u yoki bu darajada amalgal oshirilishi kerak;

3) har bir dars uchun asosiy maqsadni sinfdagi barcha o'quvchilar o'zlashtirishi uchun tushunarli bo'lishi uchun belgilash. Hozirgi vaqtida har bir aniq dars uchun zarur bo'lgan narsalarni tushunish asosiy muammo hisoblanadi.

4) darsning har bir qismi uchun vositalar va uslubiy texnikalarni ongli ravishda tanlash;

5) talabalarning faol bilim faoliyatini rag'batlantirish.

Darsni o'tkazishda, uning turidan qat'i nazar, uning tematik yaxlitligini va to'liqligini, ya'ni barcha tarkibiy qismlarining organik birligini (bilimlarni sinash, aks ettirish, yangi materialni o'rganish va hk) ta'minlash kerak. Bundan tashqari, dars mavzusini ochishda zarur bo'lgan to'liqlik, har bir berilgan darsning oldingi va keyingi darslar bilan aloqasi.

Darsga zaruriy talab - bu o'qituvchining bilim olish uchun motivatsiyani ta'minlash qobiliyatidir, ya'ni o'quvchilarning ish mazmuni va uslublariga qiziqishini uyg'otishi, sinfdha ijodiy, hissiy muhit



yaratishi.

Darsga chinakam qiziqish, o‘rganilayotgan narsalarga nisbatan hissiy munosabat nafaqat tarixiy voqealar to‘g‘risida jonli materiallarni keltiribgina qolmay, balki muammoli vaziyat yaratish, qiziqarli o‘quv va bilim vazifasini qo‘yish, o‘rganilayotgan faktlarga talabalarning shaxsiy munosabatini rag‘batlantirish orqali ham yaratiladi.

Tarixiy xaritalar geografik asosda yaratilgan va voqealar yoki davrlar tarixining qisqartirilgan umumlashtirilgan majoziy-ramziy tasvirlarini aks ettiradi. Tarixiy xaritalar dinamik, geografik xaritalardan farqli o’laroq, ular jarayonlar va hodisalarining dinamikasini ochib beradi.

Sxemalar: iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy-tarixiy.

Ilovalar - o‘rganilgan davrga xos bo‘lgan narsalar yoki karton kontur bo‘ylab kesilgan turli xil ijtimoiy guruhlar vakillari tasvirlari: siluet, ochiq ranglarda, odamlar, asboblar va qurollar, hayvonlar, binolarning rasmlari (masalan, urush haykalchasi katta armiyani ramziy ma’noda anglatadi). Ular, shuningdek, uy qurilishi mumkin. Ilovadan foydalanishning maqsadi o‘rganilayotgan voqealarni hoidisalar to‘g‘risida aniqroq tasavvur hosil qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘rayev R va boshqalar. Pedagog kadrlar malakasini uzlusiz oshirish mexanizimini takomillashtirish. O‘quv- metodik qo‘llanma. T., 2014, 160b.
2. Turdiyev N. Umumiyy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyarai.(I qism). T., 2015.
3. Axmedov B O‘zbekiston tarixi manbalari. (Qadimgi zamон va o‘rta asrlar). T., “O‘qituvchi”, 2001.
4. Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. T., 2008.
5. Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi. T., 2012.



TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Raximova Madina,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
11-umumta'l'm maktabi tarix o'qituvchisi

Ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi uni tarkibiy jihatdan qayta tashkil etish jarayoni fan texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi zamонави yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi.

O'quvchilarning qobiliyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqlashtirilgan yondashuvning joriy etilishi, ta'lim berishning zamонави o'quv uslubiy majmualarinining yaratilishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish zarurati, ta'lim – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlanishi umumiyo o'rta ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar zimmasiga ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yangiliklarini amaliyatga tatbiq etish, pedagogik jarayonni ilmiy asosda loyihalash va tashkil etish vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchilar ta'lim berishning turli xil usullarini bilishi va ularga asoslanishi, yangi g'oyalarning yo'naliшlarini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni o'z faoliyatiga tatbiq etishi lozim. Bu jarayonda nafaqat ta'lim mazmuni, balki qo'llanilayotgan o'qitish texnologiyalari ham muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda o'qish va bilish faoliyatini o'zgartirishning imkoniyatlaridan biri o'quv jarayoniga muammoli o'qitish texnologiyalarini tatbiq etishdir. Chunki muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham o'zlarining intellektual, jismoniy, ma'naviy imkoniyatlarini o'quv va amaliy muammolarini yechish uchun sinovdan o'tkazadilar. Bu jarayonda hosil bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar axborot jamiyati sharoitida yashash uchun zarursifatlarni shakllantirishga olib keladi. Shu bilan birga muammoli o'qitish texnologiyalari o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, real dunyoda paydo bo'layotgan qiyinchiliklarni ko'ra bilish va ularni bartaraf etishning optimal yo'llarini izlab topish, ijodiy fikrlash, yangi g'oyalalar yaratish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Berilgan ta'rif	O'quvchilarning ta'rifi
Satellit – (lotincha-yo'ldosh, hamfikr) rasman mustaqil, biroq amalda boshqa, nisbatan kuchli davlatga bo'yso'nuvchi davlatning siyosiy maqomi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. kuchli davlatning boshqa kuchsiz davlatga nisbatan amalga oshiradigan kamsituvchi siyosati. 2. Mustaqil lekin kuchsiz davlatning o'zidan kuchli bo'lgan davlatga majburiy bo'ysunishi. 3. Germaniyani 1939-yilda Slovakiyaga nisbatan qo'llagan siyosiy nayrang'i. 4. Nomigagina mustaqil bo'lib, amalda boshqa davlatga majburiy bo'ysunuvchi davlatning siyosiy maqomi

Bu metod o'quvchilarda fikrlash mahoratini rivojlantiradi. Eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi.

Xronologik boshqotirmalarni qo'llash

Tarix ta'limida sinxron (bir vaqtida o'zaro mos ravishda) va xronologik jadvallarni to'ldirish tarix darslarida mavjud bo'lgan bir turdag'i faktlar haqidagi bilimlarni sistemalashtiradi. Masalan, G'arbiy Yevropa va O'zbekiston hududida yerga egalik munosobatlarining shakllanishini taqqoslash (sinxron jadval shakida)

G'arbiy Yevropada

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

O'zbekiston hududida

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

Shunigdek, tarix darslarida uzviylik va uzlusizlikni ta'minlash maqsadida yangi mavzudagi voqealarni o'tilgan materilallar bilan bog'lash, zamon va makonda tahlil qilish ko'nikmasini rivojlnatish maqsadida xronologik boshqotirmalardan foydalanish maqsadga muvofikdir.



Xronologik boshqotirmalardan namunalar

Daftarda kvadrat chizib, uni vertikal va gorizontal holda 4 ta katakka teng bo‘lib, o‘ng tomondan oxirgi katakka O‘zbekiston tarixidan yangi mavzuda o‘rganilgan, jahon hamjamiyatiga molik muhim tarixiy voqeanning sanasini (vertical holda, tepadan pastga qarab) yozing. Qolgan kataklarni gorizontal holda tarixiy sanalar bilan shunday to‘ldirish kim, unda jahon tarixidagi muhim sanalar aks ettirilsin.

Masalan, 1-boshqotirma A

A)	1	4	1	1
B)	1	5	1	7
C)	1	3	8	1
D)	1	5	4	0

1. Qo‘o‘qon xonligining tashkil topishi (1710-yil).

- A) Germaniyalik mashhur rassom Albert Dyurer tug‘ilgan yil
- B) Yevropada reformatsiyaning boshlanishi.
- C) Angliyada Uot Tayler qo‘zg‘olonining boshlanishi
- D) Yevropada reformatsiyaga qarshi “Iso jamiyati”, ya’ni Iuzitlaz ordenini tasdiqlanishi.

2- boshqotirma

A)	1	4	1	1
B)	1	5	1	8
C)	1	3	8	7
D)	1	5	4	3

1. Podsho Rossiyasi tomonidan Xiva xonligi bosib olingan yil (1873).

- A) Chingizzxonning Urganchga hujumi boshlangan yili (1221).
- B) Ulug‘bek rasadxonasi qurilishi boshlangan yil (1428).
- C) Yuz yillik urur boshlangan yil (1337).
- D) Niderlandiyada gersog Albaning hukmronligi tugagan yil (1573).

Fikrimizcha, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni loyihalash va hayotga tadbiq etish muammosi mamlakatimizda ham ta’limda rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlar qatori yoshlarda hurfkrnlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ijobjiy ta’sir ko’rsatar edi.



TARIX FANINI O'QITISHDA TAQQOSLASH METODIDAN FOYDALANISH

Samatova Dilrabo Xamitovna
Navoiy viloyati Karmana tumani
4- umumta'lif maktab
tarix fani o'qituvchisi

O'zbekiston mustaqillikka erishganligi tufayli, jamiyatimizning hamma sohalarida jiddiy o'zgarishlar davri boshlandi. Shu jumladan tarix fani oldida ham yangi-yangi muammolar ilmiy izlanishlarni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, tarix fanlarini o'qitishda uning usullaridan foydalanishga qiziqish kuchaymoqda. Tarix fanlarinig o'qitilishida jumladan, interfaol usullardan foydalanish dars jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bu usulning imkoniyatlari shunchalik ko'p va ahamiyatlici, buni zamonamizning eng yangi pedagogik usuli desak, xato qilmagan bo'lamiz. Mazkur usul o'zining nechog'lik dars samaradorligini oshirishini amalda tasdiqlamoqda, o'qituvchi metodlaridan biri sifatida uning pedagogik amaliy faoliyati mezoniga aylanib bormoqda. Zero, o'qitish jarayonida turli usul va metodlar bor, binobarin ushbu usul ayniqsa, tarix darslarini o'rganishda amaliy ahamiyat kasb etadi deb bilamiz.

Tarix fanini o'qitish jarayonida eng muhim mantiqiy amallardan biri bo'lgan taqqoslashdan keng suratda foydalaniladi. Bu usulda taqqoslash paytida ularning belgilari ayniqsa aniq va to'liq ajratilib, tushunib olinadi; ayni vaqtida taqqoslash sintez rolini bajaradi, chunki taqqoslashda hamma vaqt ikki yoki bir necha hodisalar o'rtaqidagi bog'lanishlar aniqlanadi.

Taqqoslashning mashq usuli (bu usul taqqoslash paytida bajariladigan mantiqiy amallarga to'g'ri keladi) o'quvchilarning zamon va makon tasavvurlarini hosil qilishda, ularni tarixiy sabablari hamda natijalarini tushunishga olib kelishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyat taraqqiyotidagi bir xil jarayonlarning sabablari, natijalari va asosiy bosqichlarini taqqoslash hamda ularning turli mamlakatlardagi umumiyl xususiyatini aniqlash yo'li bilan o'qituvchi o'quvchilarni ularning saviyasiga mos tarzda ana shu jarayonlar qonuniyatini tushunishga olib keladi.

5-6 sinflarda tarix darsini o'qitish jarayonida odatda quyidagilar taqqoslanadi:

1) bir vaqtga yoki turli tarixiy davrlarga taaluqli bir turdag'i obyektlar (moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklari, tarixiy-geografik obyektlar, masalan, mamlakatlarning hududlari);

2) turli vaqtida turli mamlakatlarda bo'lib o'tgan bir turdag'i voqealar yoki hodisalar, ularning sabablari va natijalari;

3) bir mamlakatda yoki turli bir necha mamlakatda ayni bir vaqtida bo'lib o'tgan, bir-biriga o'xshash hamda bir-biridan farq qiladigan voqealar va hodisalar;

4) bir mamlakatning o'zida yoki bir toifa mamlakatlarda ijtimoiy taraqqiyotning bir-biriga qarama-qarshi xarakterdagi jarayonlarni (masalan, davlatlarning parchalib ketish va markazlashish jarayonlari);

6) turli mamlakatlardagi ijtimoiy taraqqiyotning bir-biriga o'xshab ketadigan yoki aynan o'xshaydigan jarayonlari, ularning sabablari, oqibatlari va natijalari (masalan, Yevropada yoki Osiyoda uyg'onish davri).

O'qitish jarayonida taqqoslash usullaridan tizimli foydalanish o'quvchilarning ana shu mantiqiy jarayonni tobora aniqroq bajaradigan bo'lishlariga yordam beradi. Taqqoslash mantiqiy jarayonning takomillasha borishi shu narsada o'z ifodasini topadiki, o'quvchilar tarixiy hodisaladagi tobora kamroq payqaladigan nozik tafovutlarni topa oladigan hamda taqqoslanayotgn ob'yektlar yoki hodisalar o'rtaqidagi o'xshashlikning tobora kamroq ko'zga tashlanadigan xususiyatlarini aniqlaydigan bo'la boshlaydilar.

5-6 sinf o'quvchilarini taqqoslash usulini tashkil etuvchi usullardan ongli suratda foydalanishga o'rgatmoq uchun o'qituvchining texnologik xaritasi puxta o'ylangan, izchil suratda amalga oshiriladigan bo'lishi lozim.

O'quvchilarda taqqoslash usullarini yuzaga keltirishga qaratilgan ishda ularning bilish faoliyatidagi ba'zi bir xususiyatlarni hisobga olish zarur.

11-13-yoshlardagi o'quvchilarga xos bo'lgan boshqa bir xato- muhim bo'lmagan belgilari bo'yicha taqqoslashdir. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, taqqoslash vaqtida, hatto bu ish o'qituvchi rahbarligida bajariladigan taqdirda ham, "muhim bo'lmagan belgilari o'quvchilarga ko'pincha... muhim belgilarga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatadi"¹.



5-6 sinf o‘quvchilarining e’tiborini, ko‘pincha, hodisalarning eng yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan va his-hayajon bilan idrok etadigan belgilari o‘ziga jalg qiladi. Ko‘p hollarda bolalar hodisalarning tashqi belgilarini aniqlash bilan cheklanadilar.

Psixologlar va tarix o‘qituvchilarining kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, quyi sinf o‘quvchilari uchun ayniqsa qiyinchilik qiladigan vazifa- to‘liq taqqoslash deb atalgan jarayon, ya’ni ayni bir vaqtida ham o‘xshashlik, ham tafovut belgilarini aniqlashdir, chunki bunday vazifaning qo‘yilishi ularning diqqatini ikkiga bo‘lib yuboradi. Tarixiy voqealar, hodisalar va jarayonlarni taqqoslash malakasi o‘quvchilarda aqliy faoliyatning quyidagi usullari negizida hosil bo‘ladi:

- 1) hodisalarning taqqoslanadigan belgilarini topish usuli bilan;
- 2) taqqoslanadigan muhim belgilarni muhim bo‘lmagan belgilardan ajratib olish usuli bilan;
- 3) ularning qay darajada muhimligi va asosiy belgiga qay darajada bog‘liqligiga qarab o‘z o‘rnini belgilash va shu asosda taqqoslash rejasini tuzish usuli bilan;
- 4) rejada ajratib ko‘rsatilgan belgilar bo‘yicha hodisalarni izchil tartibda taqqoslash usuli bilan.

5-6 sinflarda o‘quvchilar o‘zлари mustaqil suratda narsalar va hodisalarning taqqoslanadigan bir necha muhim belgilarini ajrata bilishga, ularni sababli bog‘lanishga qarab joy-joyiga qo‘yishga va shu belgilar bo‘yicha izchil tartibda taqqoslab chiqishga o‘rganadilar. O‘qituvchi ishning ana shu usullarini turli xarakterdagi va murakkabligi turli darajada bo‘lgan tarixiy ob‘yektlarga nisbatan tafbiq etish bilan asta-sekin o‘quvchilarni tanishtira boradi.

Eksperiment tariqasida o‘tkazilgan tekshirish asosida, 5-6 sinf o‘quvchilarida tarixiy hodisalarni taqqoslay olish malakasini hosil qilishga qaratilgan topshiriqlarning namuna tarzidagi turlarini hamda ularning izchil tartibini tavsiya etish mumkin.

Madaniyat mavzularida tasviriy san’at asarlarini taqqoslashga doir topshiriqlarning murakkablashib borish namunalarini keltiramiz:

- 1) bir xalqning bir davrga taaluqli san’at yo‘li bilan ularning o‘xshashlik xususiyatlarini aniqlash (Misrning turli xil bo‘rtma rasmlarida, qadimgi yunon haykallarida, Uyg‘onish davridagi san’atkorlarining rassomlik va haykaltaroshlik asarlarida odam qiyofasining tasvirlanishi);
- 2) turli xalqlar san’at yoqgorliklarining bir-biriga o‘xshash va bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlash (qadimgi grek va qadimgi Rim haykaltaroshligida, arablar me’morchiligi bilan Yevropadagi turli xalqlarning o‘rta asrlarga xos gotik inshootlari);
- 3) turli davrlarga xos san’atning turli yodgorliklari o‘rtasidagi o‘xshashlik xususiyatlarini aniqlash (qadimgi davr- Uyg‘onish davri);
- 4) turli davrlarga xos san’atning tipik yodgorliklari o‘rtasidagi tafovut xususiyatlarini aniqlash (qadimgi davr-o‘rta asrlar davri, ilk o‘rta asrlar davri- Uyg‘onish davri).

O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish vaqtida qadimgi dunyodagi ayrim xalqlarda odamlar qiyofasini tasvirlashda takrorlanadigan umumiy va muhim xususiyatlarini ajratib oladilar.Ularni bajarishda, jumladan, taqqoslashning izchil tartibini belgilashda san’at asarini tahlil qilishning mantiqiy jadvaldan amaliy jarayonda foydalinish yordam beradi.



TARIX TA'LIMIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Toshnazarov Jamshid

Navoiy viloyati Xatirchi tumani
73-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix faani o'qituvchisi

Yurtimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan jamiyatning barcha sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshmoqda. Biz rivojlangan mamlakatlar tajribasida o'z isbotini topgan bozor munosabatlariga asoslangan, inson manfaatlari ustuvor bo'lган jamiyatni qura boshladik. Jamiyatning barcha tarmoqlarida yuqori texnologiyalarni amalga tadbiq qiladigan kadrlarni tayyorlash vazifasi ta'lim tizimining zimmasiga yuklanadi. Bu jamiyatda yashaydigan fuqaro yuqori texnologiyalsrni amalga tadbiq qiladigan kadrlarni tayyorlash vazifasi ta'lim tizimining zimmasiga yuklanadi. Bu jamiyatda yashaydigan fuqaro yuqori saviyadagi zamonaviy bilim, tegishli ko'nikma va malakaga ega bo'lган taqdirlargina to'laqonli hayot kechirish imkoniyatiga ega. Yuqori texnologiyalarga asoslangan jamiyat har bir kishidan o'z ishiga ijodiy, kreativ yondashuvni va yuksak darajadagi kasb mahoratini talab qiladi. Shu sababli bunday talablarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lган kishining sifatlari boshda oilada, keyin esa asosan o'rta maktabda shakllantiriladi. Bu jamiyatda yashaydigan fuqaro hiozirgi kunda mакtab partasida o'tiribdi. Bu jamiyat axborot-kommunikatsiya hamda yuqori texnologiyalarga asoslangan bo'ladi. Ta'limning modernizatsiyalashuvi ta'lim muassasalarining taraqqiyoti, o'quvchilarni ma'naviy barkamolligi, yoshlarning ijodiy qobiliyatini yuksaltirish masalalari bilan mushtarakdir. Ushbu jarayonda ta'limning barcha imkoniyatlaridan foydalanish, ta'lim mazmunini yanada boyitish-takomillashtirish amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqa lashtirilgan yondashuvini joriy etish, ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish hamda o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash vazifalari bilan mustahkamlangan. Ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lган tarix ta'limi bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatda yashaydigan shaxs va fuqaroni shakllantirishda asosiyo'rinni egallaydi. Zamonaviy tarix ta'limini tashkillashtirishning asosiyo'rinni egallaydi. Tarix darsining asosiyo maqsad va vazifalari bu—o'quvchiga o'tiladigan mavzu bo'yicha tegishli bilim berish, rivojlaniruvchi bilim hosil qilish hamda mavzuga mos tegishli tarbiyani berish. Shuningdek o'quvchida hayotiy o'quv ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Darsni samarasini ta'minlash uchun tarix o'qituvchisi faoliyati muim o'rin tutadi. Tarix o'qituvchisining nazariy va amaliy bilimi yetarli darajada shakllangan bo'lib u darsning vazifalarini aniq belgilash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Maktabda tarix o'qitishning maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalari va mazmunini bilish uchun tarix o'qitishning ilmiy asoslarini egallab olishning o'zi kifoya qilmaydi. Tarix ta'limini darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar, boshqa turli madniy-ma'rifiy tadbirilar asosida amalga oshiriladi. Tarix ta'limini hayotiyligini ta'minlash deganda nimani tushunamiz? Bu eng avvalo o'quvchining tarix ta'limida oladigan bilimi, ko'nikma va malakasini o'z kelajak mustaqil hayotida foydalanishi mumkin bo'lishidir. Demak, tarix ta'limi o'quvchini kelajak mustaqil hayotga tayyorlashda va uning ijtimoiylashuviga yordam beradigan mazmunga ega bo'lishi kerak. O'z vaqtida taniqli olim M.Behbudiy shunday ta'kidlagan edi: "Shuning bilmoq, tarix o'qimoq kerak. Xulosa, din-u diyonatdan boxabar bo'lmoqni xohlaydurgan har kim uchun tarix o'qimoq kerak, chunki har nimasa va ishning asli va nasli tarixdan bilinur. Katta kishi bo'lmoq uchun tarix bilmoq lozimdir."

Zamonaviy tarix darsini tashkil etish uchun tarix o'qituvchisi hayot sinovidan o'tgan ma'lum bir o'qitishning zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shunday o'qitish texnologiyalaridan biri tarix o'qitish jarayonini loyihalash bo'ladi. Amerika-Yevropa ta'lim tizimida keng qo'llanib kelinayotgan loyiha metodi o'quvchi shaxsining rivojlanishida nufuzli mavqeni egallab turgani yaqol ko'rinxmoqda. Hozirgi kunda tarix ta'limida yuz berayotgan ijobjiy siljishlar loyiha metoini o'qitish jarayonida tadbiq etish dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Tarix fanida boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan farq qilgan holda loyihalash metoini uning har bir mavzusi bo'yicha turli shakl va ko'rinishlarda tadbiq etilishi mumkin. Loyihalash metodi asosida tarix darslarini o'tkazish tarix o'qituvchisining yuqori malaka, bilim ijodkorligini namoyon qilishiga imkon yaratadi. Chunki har bir loyiha ijodkorlik bilan yondashib,



zaruriy materiallarni tanlab, ajratib olishni, topshiriq va mashqlarning samarali tizimini ishlab chiqishni talab iladi. Shu bilan birga, loyihalarni o‘quv jarayoniga kiritish, tashkiliy va psixologik jihatdan bir qator muammolarni yechishni talab qiladi. O‘quv bo‘limi yangi o‘quv yilida o‘quv loyihalarini bajarish rejasini tuzadi. O‘quv yilining boshlanishida har bir sinfda tarix fani o‘quv dasturidan uning bo‘limlari, mavzulari va savollar loyiha asosida o‘qitish uchun tanlab olinadi. Tarix o‘qituvchisi loyihalar metodini o‘quv jarayonida tadbiq etish uchun o‘quv yili boshlanishidan loyiha metodi bo‘yicha dars o‘tishni rejalashtirishi lozim. Loyihalanadigan mavzular o‘quv metodik birlashma muhokamasiga tavsiya etilai. Mavzular bo‘yicha o‘quv loyihalari tarix o‘qituvchisi tomonidan tuziladi. Eng avvalo, tanlangan mavzu o‘quvchida qiziqish uyg‘otishi, shu mavzu ustida ishlash istagi paydo bo‘lishi kerak.

Tarix fani o‘qituvchisi tanlanadigan mavzuning mohiyat-mazmunini har tomonlama tahlil qilib, loyihaning asosiy muammosini aniqlashtiradi. Loyerha ilmiy-nazariy va amaliy asoslanib, uning asosnomasi shakllantirilib, o‘quv-metodik birlashma muhokamasiga taqdim etiladi. O‘quv loyihalari puxta ishlangan bo‘lsa, u o‘quvchilarda yangi bilim hosil qilishga samarali xizmat qiladi.



TARIX FANLARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Xudoyberdiyev Ilhom

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

26 - umumiy o'rta ta'lif maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars samaradorligiga erishishning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: metod, usul,hikoya, ma'ruza, suhbat, ana'anaviy, noana'naviy, illyustratsiya metodi, laboratoriya, mashq.

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy - iqtisodiy sohalarda, shuningdek, ta'lif tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, bugungi kunda xorijiy davlatlarda samarali qo'llanilayotgan "Keys-study", "Loyiha", hamkorlikda o'qitish texnologiyalari, "T-sxema", "Blits-so'rov" va boshqa interfaol usullar haqida ma'lumot, hamda ularni dars jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yoritib berishga harakat qilinmoqda. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'linda talabalarini faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi. Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limi tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Shuning uchun ham, ta'lif muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'linda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarini bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Metod - yunoncha "metodos" so'zdan olingan bo'lib, izlanish, bilish yo'li, nazariya, ta'lif, biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi. Aniq vazifani echishga bo'ysundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish yo'llarining yig'indisidir. Shuningdek, maqsadga erishishning aniq, qisqa va maqbul yo'li hisoblanadi. Metod-tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi usullar va jarayonlar yig'indisidan iborat. O'qitish metodi esa ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari yoki ta'linda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi.

Usul – metodning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llaniladigan va alohida qadam hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida ko'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlariga katta ahamiyat beriladi. Didaktika bilan shug'ullanuvchilar metodni o'quv jarayonining o'zagi, ko'zlangan maqsad va pirovard natijani bog'lovchi vosita deb izohlaydilar.

O'qitish metodi "o'qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari" tizimida muhim o'rinn egallaydi. O'qitish metodi – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'lifdir. O'qitish metodida o'qitishning ob'ektiv qonuniyatları, maqsadları, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri bshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lif metodlari o'quv tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ularsiz ta'lif maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o'quv materiallarimazmunini o'zlashtirish mumkin emas. Ta'lif metodi vositasida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini o'zaro muvofiqlashadi. Ta'lif metodi - o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lumot mazmuniga yo'naltirilgan faoliyatni tartibga solish



yo‘lidir.

Ayrim adabiyotlarda pedagoglar tomonidan —metod bilan —usul tushunchalarini chalkash ishlatish holatlari mavjud. O‘qitish metodlarini muvaffaqiyatli amalga oshishi albatta usullarning mahorat bilan qo‘llanilishiga bog‘liq. Aksariyat pedagoglar —metod bilan tushunchasini —usul deb tarjima qilib o‘zlarini va tadqiqotchilarni ham chalg‘itadilar. Bizningcha metod tushunchasini tarjima qilish kerak emas. Ta’limda metodlar tizimidan keng foydalilanilgan taqdirdagina ta’lim-tarbiya ishlari sohasida natijarga erishish mumkin. G.Fuzailovaning “Tarix o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida an’anaviy metodlar umumlashtirilib to‘rtga ajratilib, ularning usullari ko‘rsatilgan.

Ta’lim metodlari tizimi deb, eng muhim umumiyligi belgilari bilan o‘zaro bog‘langan, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan metodlar guruhiга aytildi. Bu metodlarning umumiyligi muhim belgilari - o‘qitish va o‘rganish usullari hamda o‘qituvchi va o‘quvchilarning tafakkur faoliyatidan iboratdir.

O‘qitish metodlari usullari va o‘quvchilar tafakkur faoliyatining turli shakllari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va ularning bir-biriga ko‘rsatadigan ta’siri asosida bir tizimdagи metodlarning o‘zaro bog‘liqligi yuzaga keladi. Ta’lim tizimi tajribasida ko‘rsatmali o‘qitish deyarli hech qachon o‘qituvchining bayonisiz qo‘llanilmaydi, o‘qituvchining bayoni ham doim ko‘rsatmali vositalarga suyanadi. O‘quvchilarning texnika vositalari, matnlar va boshqalar ustidagi amaliy faoliyati ta’limning ko‘rsatmali va og‘zaki usullari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.



IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONLIK JANGCHILARNI FASHIZMNI TOR-MOR ETISHDAGI JASORATLARI

Xushmurodova Zokiya Arslonovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

18-umumta'l'm maktabining tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinci jahon urushi yillarida O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi va O'zbekistonlik jangchilarni fashizmni tor-mor etishdagi jasoratlari haqida ilmiy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy va mehnat safarbarlik, diviziya, orden, medallar.

Ikkinci jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g'oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo'lmasin, o'z vatani, el-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarning, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz.

I.A.Karimov.

Insoniyat juda ko'plab urushlarni boshidan kechirgan. Lekin bu urushlar ichida ikkinchi jahon urushi tarixda eng dahshatli, eng ko'p talafot va katta vayronagarchilik keltirgan, 50 mlndan ortiq kishining yostig'ini quritgan urush sifatida iz qoldirdi. Maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha, bu urush olti yil (1939-yil sentabr – 1945-yil sentabr) davom etib, yer sharining 80% aholisi joylashgan hududni o'z domiga tortdi. Bu urushda armiya saflariga jami 110 mln kishi safarbar etilib, 65-67 mln kishi halok bo'lgan. Bu urush ayni paytda eng dahshatli qurollar ishlatilgan urush ham edi.

Fashizmni dunyoga hukmron bo'lishga intilishi va insoniyat boshiga keltirishi mumkin bo'lган kulfati antifashistik kuchlarni birlashtirdi. Erksevar xalqlarning birgalikda fashizm ustidan qozonilgan g'alabasiga osonlikcha erishilmadi.

Bu urushga majburan tortilgan Sovet Ittifoqi xalqlari mustamlaka asoratida bo'lgan barcha respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari uchun ham og'ir sinovlar vaqt va ularning nemis fashist bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi. Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlaridanoq respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq arizalar tushgan.

Urushning dastlabki kunlaridanoq O'zbekistonning barcha moddiy va ma'naviy kuchlari, resurslari front uchun safarbar qilina boshlandi. Umumiylar harbiy safarbarlik e'lon qilindi. O'zbekiston hukumati milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi.

1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martgacha 14ta milliy harbiy qo'shilma, jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi tuzilib frontga jo'natildi. 1941-yilda respublika aholisi 6,5 mln kishini tashkil etgan bo'lib, ikkinchi jahon urushi frontlariga O'zbekistondan 1mln 433200 kishi safarbar etilgan. Binobarin O'zbekiston aholisining 22 foizi jang maydonlarida qatnashib, ularning ko'pchiligi mardlik namunalarini ko'rsatib, jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. Urushda ishtirok etganlardan 268005 kishi halok bo'ldi, 132670 kishi bedarak yo'qoldi, 60452 kishi esa mayib-majruh bo'lib qoldi. O'zbekistonliklarning urushda ko'rsatgan mardligi va jasorati yuqori baholandi. Frontda ko'rsatgan jasoratlari uchun O'zbekistonliklardan jami 120 ming jangchi hukumat ordeni va medallari bilan mukofotlandi. Ulardan 280 kishi Qahramon unvoniga sazovar bo'ldi, 32 nafar o'zbekistonliklar jangchilar uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan mukofotlandi. Jumladan 1753 nafar o'zbekistonlik jangchilar "Moskva mudofaasi uchun" medali, 1706 kishi "Berlinni olganligi uchun", 109208 o'zbekistonlik jangchilar Germaniya ustidan g'alaba qozonilganligi uchun medallari bilan taqdirlandilar.

Hamyurtlarimizdan bir necha minggi Italiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yugoslaviya, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya kabi davlatlarning orden va medallari bilan mukofotlandilar. ularning orasidan birinchi o'zbek generali, 57-gvardiyachi diviziyaning qo'mondoni Sobir Rahimov, Janubiy-G'arbiy front tarkibidagi 353-tog' o'qchi polka jangchisi Qo'chqor Turdiyev, mohir mernan va razvedkachi Zebo G'aniyeva, "Oryol" diviziyasi faxriy nomini olgan 5-o'qchi diviziya tarkibidagi farg'onalik Ahmadjon Shukurov va boshqa ko'plab hamyurtlarimizning ismlarini sanab o'tishimiz mumkin. ularning jasorati vatanimizning bugungi yosh avlodи uchun namuna yulduzidir. Bu



yurtdoshlarimizning ba'zilarini xoki begona va olis yurtlarda qolib ketdi.

Ozodlik va erk uchun, Vatan uchun jon fido qilgan insonlarni doimo yodda saqlash uchun 9-may "Xotira va Qadrlash kuni" deb e'lon qilindi. Urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylarini qadrlash, e'zozlash, hurmat-izzatini joyiga qo'yishdek ulug'vor insoniy ishlar yoshlарimizni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, mustaqil O'zbekistonning milliy xavfsizligini mustahkamlashda katta ahamiyatga egadir.

Zero xalq uchun qilingan ish, ko'rsatilgan har bir jasorat mangulikka daxldordir.Ular hech qachon unutilmaydi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Ikkinci jahon urushi va front gazetalari (Birinchi kitob) Toshkent."Akademik nashr" 2017y.
2. Шамсутдинов Р, Каримов Ш Ватан тарихи. II китоб.Андижон."Мерос" 1998y.
- 3.O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinci kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent."Sharq" 2000 y.



O'ZBEKISTON TARIXINI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.

Abdullayeva Nigora Po'latovna

Xorazm viloyati shovot tumani
53-maktab tarix fani o'qituvchisi.
Email:nigora53maktab@umail.uz

Safasheva Muhayyo

Xorazm viloyati shovot tumani
25-maktab tarix fani o'qituvchisi.
Email: muhayyo25@umail.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston tarixini o'rganishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlari: madaniyat,metodologiya

O'zbekiston tarixini o'rgani ilmiy - nazariy va metodologik asoslari. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston tarixi fanini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu urinda Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo'lmanidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajag'i ham bo'lmaydi», «Tarix xalq ma'naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir» kabi so'zlari ham nazariy, ham metodologik ahamiyatga egadir (Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T.:O'zbekiston, 1992. -B.71; Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. -T.: Sharq,1998. -B. 10-21). Islom Karimov o'tmishni o'rganishda tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va xalol amalga oshirish asosiy vazifadir, deb uqtirgan. Bu vazifani amalga oshirish O'zbekiston tarixi fanini o'rganishning ilmiy va uslubiy asoslariiga tayanishni talab etadi. Bunday yondashish zaminida dialektik metodni qo'llash yotadi. Dialektika (yunoncha - dialektike - rivojlanish to'g'risidagi falsafiy ta'limot) olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan xodisalar, voqealar umumiyligi va o'zaro bog'lanishi, o'zlo'qsiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Bu degani olamda sodir bo'lgan xodisalar, voqealar ma'lum bir bog'lanishda, o'zlo'qsiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyot jarayonida sodir bo'lishini inobatga olmoq lozim. Demak, O'zbekiston tarixini o'rganar ekanmiz, uning jahon tarixining bir bo'lagi ekanligini yodda tutmok darkor. Negaki, har bir xalq tarixi milliylik, o'ziga xos betakror xususiyatlari bilan jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiyligi bog'lanishdadir. Tarixiy voqeа, hodisalarни o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik - haqqoniyligi, adolatli yondashuv muhim metodologik qoidadir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbanlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniyligi o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi» {Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. B. 97). Xolislik qoidasi tarixiy voqeа, xodisalarни o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning xech bir istisnosiz butun majmui bilan birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniyligi dalillarga asoslanishini talab qiladi. Tarixiy xodisalarни bir butun xolda, o'zaro aloqada va munosabatda, deb o'rganish darkor. O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik tamoyili o'sha davr shart - sharoitlarini, tarixiy muhitni inobatga olmoqni takrzo qiladi. Voqeа - xodisalarни o'rganishda tarixiy bog'lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qilmoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda bo'lganligini bu xodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib kolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermokchi bo'lsak, "birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqinchilarini bosib o'tdi?, uchinchidan, u xali ham mavjudmi?, Hozir kay ahvolda, qanday bo'lib koldi?" degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi. Tarixiylik metodologiyasi xalqning o'tmishini, hozirgi zamon va kelajag'in yagona tabiiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiyligi yo'ldan borayotgan ekan, porlok; hayot, turmush kurmokchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'z O'tmishini yaxshi bilmog'i



lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz. Shuningdek, hozirgi zamonni, bugungi avlodning bunyodkorlik faoliyatini to'g'ri idrok etish o'tmishni, tariximizni chuqur anglashga ko'maklashadi. Tarixni o'rganish faktlarni takkrslash, mantiliy qiyyosiy xulosalar chiqarish va umuman falsafiy tafakkur bilan yondashishni talab qiladi va O'tmishimizni teran anglashda asosiy mezon bo'lib krladi. Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog'liq; bo'lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani kay darajada ekanligiga ham bog'liq, Bu xoldagi o'zviy ikki tomonlama bog'liqdik umumiy qonuniyatidir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyati, qadim mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon tamadduniga, sivilizatsiyasiga asoslanadi, O'zbekistan tarixi fani metodologiyasi ikki qismdan iborat:

1) O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy - nazariy, g'oyaviy - mafkuraviy va falsafiy asoslari. Unga quyidagilar kiradi:

2) O'zbekiston tarixi fanining metodologik asoslari va tamoyillari quyidagilardan iborat:

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Usmonov K, Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. I - qism. - T.: 2002. - B. 6-21.
2. O'zbekiston tarixi / R. Murtazaeva umumiy tahriri ostida, - T.: Yangi asr avlodi, 2003. -B. 7-20.



AMIR TEMUR YIRIK DAVLAT ARBOBI VA YUksak Ma'naviyat Egasi.

Madumarova Zaxro Miralimovna

Toshkent viloyati Qibray tumani XTB ga qarashli
17-umumta'lum maktabi tarix fani oqituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada Amir Temurning hayot faoliyati, 'Temur tuzuklari' asarida uning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, sarkarda, Temur tuzuklari, Movarounnahr, siyosat.

Amir Temur – buyuk shaxs, yirik davlat arbobi, sarkarda, qonunshunos, iste'dodli me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga el yurtini, xalqini sevgan va uni jahonga mashhur qilgan inson. Amir Temurning tarixi ko'p jildlik kitoblar yozishga arziydi. Mustaqillikka erishgunimizga qadar buni amalga oshirishning imkoniga ega emas edik. Chunki kommunistik g'oya bunga yo'l bermasdi. Amir Temurning o'zi tahqirlanib, tuhmatu-malomatlarga qoldi. Mustaqillik tufayli ko'p ming yillik boy tarixmizni, shu jumladan ulug' bobomiz Amir Temurni o'rganish imkoniga ega bo'ldik. Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida Shahrisabzning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topdi. Temurning yoshligi va yigitlik yillari mamlakat og'ir ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qiyinchiliklar iskanjasiga tushib qolgan bir davrda kechdi. Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlana di.

Birinchi davr 1360-1386 yillarini (25-46 yoshlarda) o'z ichiga oladi. Temur bu davrda Mavorounnahrda mo'g'ul hokimligidan mustaqil kuchli markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi. Mavorounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lган turk va tojik zodagonlari – oqsuyaklari kabi sotsial kuchlar bilan birgalikda O'rta asr o'zboshimcha feodallariga, markazlashish va birlashishga zid harakatlari mamlakatni parchalangan holatda saqlashga intiluvchilarga o'zaro urushlarga undovchilarga qarshi kurash olib bordi.

Amir Temur o'zi bilibmi-bilmasdanmi, lekin bir qator xalqlar va yurtlarni mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishiga yordam berdi. Masalan, o'sha davrning eng qudratli hukmdorlaridan hisoblandan Boyadzid Yildirimni (Qaysar) tor-mor keltirib Bolqon yarim oroli va Yevropa xalqlariga ozodlik bag'ishladi, Oltin O'rta xoni To'xtamishxonni ikki marta tor-mor etib Rossiyanı mo'g'ullar hukmronligidan qutilishini qariyb 300 yilga tezlashtirdi. Temur 25 yoshida Shahrisabz hokimi bo'lishga tuyassar bo'ldi. Uning otasi shu yilning oq suyaklardan bo'lган Amir Tarag'ay Bahodir vafot etdi. Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlaribeqiyos. Temur va uning avlodlari say'i-harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, xonakohlar, saroylar, bozorlar, qal'alar, kanallar va boshqa inshootlarning son-sanog'i yo'q. Bibixonim jome masjidi, Go'ri Amir, Axmad Yassaviy, Zangi Ota maqbaralari, Oqsaroy, Ko'ksaroy va Shohi Zinda me'moriy mo'jizalari, Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behishtsingari o'nlab go'zal saroy-bog'lar va shu kabi boshqa inshootlar uning bevosita rahnamonligida bunyod etilgan. Tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur «Obodonlikka yaraydigan biror qarich yerning ham zoe bo'lishini ravo ko'rmasdi». Tarix bu qo'xna dunyoda juda ko'p jahongirlarni ko'rgan. Amir Temurning boshqa sarkardalardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lган. Uning «qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta daraxt ektirdim» degan so'zları bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdig' idir. «Agar bizning qudratimizni bilmoxchi bo'lsangiz, qurban binolarimizga boqing» deganda Amir Temur, avvalo, o'z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan desak yanglishmaymiz. "Temur tuzuklari" XIV –XV asrlar voqealari va hayotini yorituvchi qimmatli manba, Amir Temurning harbiy, siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi asar kim tomonidan qachon so'ralgani noma'lum.

"Temur tuzuklari"da do'stlik, vafodorlik, imon va e'tiqod, kasb – hunar va boshqa insoniy fazilatlarga rioya qilish to'g'risida fikr yuritiladi, fuqarolarning shariat qonun – qoidalariga buysunish lozimligi aytib o'tiladi, qozilarining qonunlarga to'la amal qilish, tartibbuzarlarni ayamay jazolash, sipohlar va askarlarni saqlash va ularga oziq – ovqat, maosh to'lash qoidasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va ularni taqdirlash tartiblari, ularning bir – biriga muomalasi va turli boshqa masalalar bo'yicha mufassal ma'lumot beriladi. "Temur tuzuklari" eski o'zbek tilida yozilgan va boshqa tillarga tarjima qilingan "Temur tuzuklari" ikki qismidan



iborat:

Birinchi qismda Amir Temurning Movarounnahrda sultanatni qo'lga kiritish uchun olib borgan urushlari va bu borada o'z yaqinlari bilan o'tkazgan kengashlari, amirlar bilan olib borgan muzokaralari haqida tavsiotlar berilgan.

Ikkinci qismida Amir Temurning davlatni boshqarish mamlakatni idora qilish uslubi haqidagi tuzuklari, ya'ni yo'l -yo'riqlari qonun qoidalari, pand -nasixatlari o'rinni olgan. Sultanatni boshqarishda Amir Temur islam dini va shariat talablariga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko'rib, qilgan xizmatlariga qarab ularni hurmat qildi, mamlakatni boshqarishda eng avvalo olimu fuzalo, sayyidlar, shayxlar va oriflarga tayanardi.

«Kuch-adolatdadir» degan shiori Amir Temur ma'naviyatini belgilovchi bosh mezon, uning butun umr bo'yini amal qilgan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmunini mujassamlashgan.

Amir Temurning ma'naviy-ma'rifiy qarashlariuning o'z farzandlari, nabiralari, taxt vorislariga qoldirgan o'gitlari «Temur tuzuklari»da mujassamlashgan. Bu beba ho tarixiy asarda, hokimlar va vazirlarning vazifalari, o'z ishiga munosabati, aholi turli qatlami, raiyatning haq-huquqlarini himoya qilish, sipohlarga munosabat kabi hayoti ma'naviy-axloqiy qonun-qoidalarda o'z ifodasini topgan.

Sohibqironning «Temur tuzuklari»danquyidagi satrlarni mammuniyat bilan o'qish mumkin: «Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalgalashgan.

Amir Temur kechirimli bo'lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaydi: «Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu-qo'rquv bo'lsa, unut bo'lardi».

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, uzoq yillar davomida mustamlaka iskanjası ostida kun kechirgan xalqimiz Amir Temur kabi o'z vatandoshini qadrashdan maxrum edi. Ollohga shukurlar bo'lsinkim, Mustaqillik mana shu nurafshon kunlaridan yurtimiz uzra Amir Temurning ruxi bizdan rozi bo'lib kezib yurgan bo'lsa ne ajab.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000